

Q.M. Karimov, I.D. Razzoqov

MATHCAD VA MATLAB MUHITIDA ISHLASH

(Oliy o'quv yurtlari fizika-matematika va
kasbiy ta'lif fakultetlari talabalar uchun)

O'quv-uslubiy qo'llanma

Qarshi
“Nasaf” nashriyoti
2014 y

UO'K 517.8.6Φ7.3

KBK 32.973.202

K 24

O'quv-uslubiy qo'llanmasi **MathCad** va **MATLAB** muhitida ishlashga bag'ishlangan bo'lib, unda **MathCad** va **MATLABning** interfeysi, menu buyruqlarining vazifalari, MathCadda oddiy matematik ifodalarni hisoblash, tenglamalarini sonli va simvolli yechish, hosila, integral, limitlarni hisoblash, grafiklar qurish, hamda MATLAB operatorlari va buyruqlari, MATLAB imkoniyatlari, vektor va matriksalar ustida amallar va ular ustida bajariladigan funksiyalar, ikki va uch o'lchamli grafiklar qurish o'rganilgan. O'quv-uslubiy qo'llanmasi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan. Undan MathCad va MATLAB dasturi bilan ishlashni hohlovchi barcha foydalanuvchilar o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: **O.Shukurov**

Qarshi davlat universiteti "Amaliy
matematika va informatika" kafedrasи
mudiri, f.-m.f.d.

Sh. Haydarov

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
"Avtomatika va axborot texnologiyalari"
kafedrasи dotsenti

K 4702620201-15 15-2014
376(06)2014

© Q.M.Karimov, I.D.Razzoqov, 2014 yil
© "Nasaf" nashriyoti, 2014 yil

ISBN 978-9943-18-194-6

MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
I - bob. MathCad muhitida ishlash.....	6
I.1. MathCad interfeysi.....	6
I.2. MathCad interfeysining menyulari.....	10
I.3. MathCadda oddiy hisoblashlar.....	17
I.4. Tenglamalarni sonli va simvolli yechish.....	23
I.5. MathCadda gragiklar qurish.....	28
II – bob. MATLAB muhitida ishlash.....	33
II.1. MATLAB haqida ma'lumotlar.....	33
II.2. MATLABda matematik hisoblashlar.....	38
II.3. MATLAB tizimi dasturlash tilining operatorlari.....	41
II.4. MATLAB imkoniyatlari. Vektor va matritsalar ustida amallar.....	47
II.5. Vektorlar va matritsalar ustida bajariladigan funksiyalar.....	55
II.6. MATLAB buyruqlari.....	63
II.7. MATLABda grafiklar qurish.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	76

So'z boshi

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishida informatika va axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos. Hozirgi kun talabalari axborot texnologiyalari bo'yicha zamonaviy dasturlash tizimlari bilan ishlashni bilishlari davr talabidir. Bunda dars darayonida foydalaniladigan o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalarining mavjud bo'lishi, o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kompyuter yordamida matematik, fizik masalalarni yechish uchun ko'pincha foydalanuvchi biron bir dasturlash tilida dastur tuzishni bilishi talab qilanadi. Yaqin kungacha foydalanuvchi o'zining matematik masalasini yechish uchun nafaqat matematikani bilishi, balki kompyuterda ishlashni, kamida biror-bir dasturlash tilini bilishi va murakkab hisoblash usullarini o'zlashtirgan bo`lishi kerak bo`lar edi. Hozirda esa tipik hisoblashlarni bajarishga mo`ljallangan kompyuterli matematika tizimlari, ya'ni amaliy dastur paket(majmua)lari (ADP) mavjud.

Bu paketlar foydalanuvchi uchun kerakli bo`lgan barcha ishni yoki ishning asosiy kerakli qismini qulay holda bajarish imkonini beradi: muammoni tadqiq qilish (analitik shaklida ham); ma'lumotlarning tahlili; yechim mavjudligini tekshirish; modellashtirish; optimallash; grafiklarni qurish; natijalarni hujjatlashtirish va shakllantirish; taqdimotlarni yaratish.

SHuni aytish joizki mazkur paketlarda yaratilgan har qanday menuy foydalanuvchini oddiy matematik tushunchalardan va usullardan uni ozod qila olmaydi. Xususan, agar foydalanuvchi matritsa nimaligini bilmasa, u holda matritsa algebrasi dasturiy paketi unga hech qanday yordam bera olmaydi, yoki foydalanuvchi noaniq bo`lmagan integralni sonli usullar yordamida hisoblashga uringanda u haqiqatdan ancha yiroq bo`lgan javobni olishi yoki javobni umuman ololmasligi ham mumkin. Ixtiyoriy keng imkoniyatlarga ega paket universal yondashishga bog'liq. Matematik paketlarni ishlatalishda mutaxassis undan ongli foydalanib chegirmalar qilishi mumkin: paketni uning muammosiga rostlashi, dasturni modifikatsiyalash, yangilash, hisoblash vaqtini tejash va h.k.

Hozirgi kunda kompyuter algebrasining nisbatan imkoniyatlari bu - Mathematica, Maple, MATLAB, MathCad, Derive va Scientific WorkPlace. Bulardan Mathematica, Maple professional matematiklar uchun mo`ljallangan bo`lib imkoniyat-larning boyligi, ishlatalishda murakkabligi bilan ajralib turadi.

MATLAB matritsalar bilan ishlashga va signallarni avtomatik boshqarish, hamda qayta ishlashga mo`ljallangan.

Mazkur o`quv-uslubiy qo`llanma 2 ta bobdan iborat bo`lib, uning birinchi bobida MathCad haqidagi ma`lumotlarga, ikkinchi bobida esa MATLAB dasturi imkoniyatlariga bag`ishlangan.


O`quv-uslubiy qo`llanmaning birinchi bobida MathCad dasturining interfeysi, menu buyruqlarining vazifalari, matematik belgilari vositalari bilan ishlash, MathCadda oddiy matematik ifodalarni hisoblash, tenglamalarni sonli va simvolli yechish, hosila, integral, limitlarni hisoblash, grafiklar qurish bo`yicha barcha mavzular misollar bilan bayon etilgan.

O`quv-uslubiy qo`llanmaning ikkinchi bobida MATLAB dasturining interfeysi, menu buyruqlarining vazifalari, MATLAB tizimi dasturlash tilini alifbosi, matematik belgilari bilan ishlash, MATLAB tizimi dasturlash tilining operatorlari, MATLAB imkoniyatlari, vektor va matritsalar ustida amallar va ular ustida bajariladigan funksiyalar, MATLAB buyruqlari, ikki va uch o`lchamli grafiklar qurish bo`yicha barcha mavzular misollar orqali berilgan.

O`quv-uslubiy qo`llanmaning har ikkala bobida MathCad va MATLAB amaliy dasturlarining barcha imkoniyatlari tushunarli tarzda bayon etilgan. O`quv-uslubiy qo`llanma oliy o`quv yurti talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, bayon etilgan fikrlar aniq va sodda holda yozilganligi sababli undan barcha matematik paketlar bilan qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin. Har bir bob o`z ichiga bir nechta paragraflarni olgan bo`lib, ular bir-birini mos

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Алексеев Е.Р., Чеснокова О.В. Решение задач вычислительной математики в пакетах MathCad 12, MATLAB 7, Maple 9. – М.: НТ Пресс, 2006. – 496 с. : ил. – (Самоучитель).
2. Дащенко А.Ф., Кириллов В.Х., Коломиец Л.В., Оробей В.Ф. MATLAB в инженерных и научных расчетах. Монография. Одесса «Астропринт», 2003. – 214 с.
3. Плис А.И., Сильвина Н.А. MathCad 2000: Математический практикум для экономистов и инженеров: Учеб. пособие. – М. Финансы и статистика, 2000 г.
4. Макаров Е. Г. Инженерные расчеты в MathCad. Учебный курс. СПб.: Питер, 2003.
5. В.П Дьяконов MathCad 2000: Учебный курс. Питер 2002 г.
6. О.А. Сдвижков Дашков И.К. MathCad - 2000: Введение в компьютерную математику. 2002 г.
7. Д.А Гурский. Вычисление в MathCad. Новое знание 2003 г.
8. Ne'matov A., Oxunboev M., Sobirov N. MathCad tizimida matematik masalalarni yechish. Uslubiy qo`llanma. Toshkent, 2009 y. 50 b.
9. T.Dadajonov, M. Muxitdinov. MATLAB asoslari. Toshkent. O`zFA Fan nashriyoti. 2008 y.
10. <http://www.MathCad.com>



17-rasm.

Grafiklarning kontekst menyusi yordamida grafiklarni tahrirlash rejimida ishlash mumkin. Buning uchun Edit Plot (Grafiklarni tahrirlash) tugmasini faollashtirish kerak.

Nazorat savollari.

1. MATLABda ikki o'lchovli grafik qanday quriladi?
2. MATLABda uch o'lchovli grafik qanday quriladi?

ravishda to'ldirib borgan.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma fizika-matematika fakultetining 5130200 – "Amaliy matematika va informatika" va 5130100 - "Matematika" yo'nalishlari o'quv dasturidagi "Amaliy dasturlar majmuasi" fani uchun mo'ljallab yozilgan bo'lib, undan MathCad va MATLAB dasturi bilan ishlashni hohlovchi barcha foydalanuvchilar o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma haqidagi fikr va mulohazalariningizni mammuniyat bilan razzoqov@inbox.uz elektron manzilimizga qabul qilamiz.

Mualliflar

I - bob. MathCad muhitida ishlash

I.1. MathCad interfeysi

MathCad bu matematikaning turli sohalaridagi masalalarini yechishga mo'ljallangan tizimdir. Uning nomlanishi ikkita – MATHematica (matematika) va CAD (avtomatik loyihalash sistemasi) so'zlarining birikmasidan tashkil topgan.

MathCad formula, sonlar, matnlar va grafiklar bilan ishlaydigan universal tizimdir. MathCad tili matematika tiliga juda ham yaqindir, shu sababli unda ishlash matematiklar uchun juda qulaydir.



MathCad 2001 dasturini o'rnatish uchun kompyuter quyidagi talablarga javob berishi kerak.

- Prosesor Pentium 90 va undan yuqori.
- Kompakt diskni o'qiydigan qurilma.
- Operasion sistema Windows 95/98-va undan yuqori.
- Operativ xotirasi 32 va undan yuqori.
- Qattiq diskda 80 M bayt bo'sh joy bo'lishi kerak.

MathCad dasturini ishga tushirish usullari.


1. MathCad dasturini Programmi (Pragrams) menyusidan ishga tushirish.

- Pusk belgisida sichqoncha chap tugmasini bosing va quyidagini bajaring.



16-rasm.

Berilgan grafikdagi shaklni sichqoncha yordamida burash uchun shakl oynasi(Figure No.1)ning standart panelidagi tugmadan foydalilaniladi va foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan shakl tomoniga buriladu. Masalan,



15-rasm.

Ushbu gragikni qurishda quriladigan shaklning x va y bo'yicha o'zgarish intervali, yani $[-5; 5]$ intervalda 0,5 qadam bilan beriladi. Shundan keyin z ning qiymatini hisoblash uchun ifoda beriladi va nihoyat grafik qurish buyrug'i ko'rsatiladi. Natijada 15-rasmdagi shakl hosil bo'ladi.


MATLABda hosil qilingan shakllarni turli burchak ostida burish sichqoncha yordamida amalga oshirilishi mumkin. MATLABda logotip tizimlar qurish misolida bu imkoniyatni ko'rish mumkin. Buning uchun logo buyrug'ini kiritish orqali grafik hosil qilinadi. Misol:

```
>> logo
```

Ushbu buyruq bajarilganda uning natijasi sifatida quyidagi tasvir hosil bo'ladi:

1-rasm. ПУСК → ПРОГРАММЫ → MathSoft Apps → MathCad 2001 Professional

2. MathCad da yaratilgan ixtiyoriy fayl orqali MathCad dasturini ishga tushirish mumkin.
3. Moy kompyuterdan ishga tushirish.
 - Moy kompyuter
 - C yoki D: diskni tanlang
 - Program Files katalogini tanlang
 - MathSoft katalogidan
 - MathCad.exe fayliga sichqonchani ikki marta bosing.
4. Yangi fayl yaratib ishga tushirish
 - Sichqonchani o'ng tugmasini bosing
 - Sozdat
 - MathCad Document



2- rasm. Yangi fayl yaratib MathCad dasturini ishga tushirish.


Yoqorida keltirilgan 4 ta usuldan birortasi bajarilsa natijada ekranda MathCad dasturi hosil bo'ladi.

MathCad interfeysi Windowsning barcha dasturlari intefeyssiga o'xshash. MathCad ishga tushurilgandan so'ng uning oynasida bosh menyu va uchta panel vositasi chiqadi: Standart (Standart), Formatting (Formatlash) va Math (Matematika).


MathCad ishga tushganda avtomatik ravishda uning ishchi hujjat fayli Untitled 1 nom bilan ochiladi va unga Workshet (Ish varag`i) deyiladi. Standart (Standart) vositalar paneli bir necha fayllar bilan ishslash uchun buyruqlar to`plamini o`z ichiga oladi. Formatting (Formatlash) formula va matnlarni formatlash bo`yicha bir necha buyruqlarni o`z ichiga oladi. Math (Matematika) matematik vositalarini o`z ichiga olgan bo`lib, ular yordamida simvollar va operatorlarni hujjat fayli oynasiga joylashtirish uchun qo`llaniladi. Quyidagi rasmida MathCadning oynasi va uning matematik panel vositalari ko`rsatilgan (3- rasm):



3-rasm. MathCad 2001 Professional dasturining oyna tuzilishi



Ushbu paneldagidan foydalanim ish maydonida matematik belgilari vositalarini chiqarish mumkin. Ular quyidagilar:
 1 – hisoblash palitrasи;
 2 – grafik palitra;
 3 – vektor va matritsa palitrasи;




14-rasm.

MATLABda uch o'lchovli grafika qurish

MATLABda ba'zi funksiyalar argumentlari ikki va undan ortiq bo'lgan hollarida ham uning gragiklarini qurish mumkin. $Z=f(x,y)$ ikkita o'zgaruvchili funksiya ko'rinishida tasvirlangan murakkab funksiyalarning gragiklarini qurish ancha oson. Bunday gragiklarni uch o'lchovli yoki 3D-grafika deb yuritiladi. Quyida unga misol ko'raylik:

```
>> % uch o'lchovli garfikaga misol
[X,Y]=meshgrid(-5:0.1:5);
Z=X.*sin(X+Y);
meshc(X,Y,Z)
```



13-rasm.

MATLABda grafiklar qurishda `fplot` grafik buyrug'idan ham foydalanish mumkin. U umumiy holda quyidagi ko'rinishda yoziladi:

```
fplot('f(x)',[xmin xmax])
```

Misol sifatida $\sin(x)/x$ funksiyaning grafigini $[-15, 15]$ oraliqda qurishni ko'raylik.

```
>> fplot('sin(x)/x',[-15 15])
```

Yuqoridagi buyruq bajarilganda natija sifatida quyidagi grafik hosil bo'ladi:

4 – natijani chiqarish va o'zlashtirish palitrasи;

5 – matematik amallar palitrasи;


6 – munosabat amallari palitrasи;

7 – dasturlash palitrasи;

8 – Grek belgilari palitrasи;

9 – simvolli amallar palitrasи.

Ularni faollashtirish orqali foydalanuvchi uchun kerak bo'lgan vosita hosil qilinadi. Ular quyidagi rasmda keltirilgan:



4-rasm. MathCad paketi oynasi va uning matematik panel vositalari.

Matematik panel vositalari quyidagilar:

Calculator (Kalkulyator) – asosiy matematik operatsiyalar shabloni;

Graph (Grafik) – grafiklar shabloni;

Matrix (Matritsa) – matritsa va matritsa operatsiyalarini bajarish shabloni;

Evaluation (Baholash) – qiymatlarni yuborish operatori va natijalarni chiqarish operatori;

Calculus (Hisoblash) – differentsiyallash, integrallash, summani hisoblash shabloni; **Boolean** (Mantiqiy operatorlar) – mantiqiy operatorlar;

Programming (Dasturlashtirish) – dastur tuzish uchun kerakli modullar yaratish operatorlari;

Greek (Grek harflari) – Grek harflarini kiritish shabloni;

Symbolic (Simvolik) – simvolik belgililar ustida ishlash uchun operatorlar.

MathCad dasturi bilan ishlashni tugatish quyidagicha:

1. [Alt]+[F4] – tugmalarini birgalikda bosib dasturni yopish mumkin.
2.  – x tugmasini bosib dasturni yopish mumkin.
3. Fayl → Exit – orqali dasturni yopish mumkin.

Nazorat savollari.


1. MathCad qanday so'zlardan tashkil topgan?
2. MathCad dasturini ishga tushirish tartibini ayting?
3. MathCad interfeysining oyna tuzilishi qanday?
4. Matematik panel vositalarini sanab o'ting?
5. MathCad dasturi ishini tugallash qanday amalga oshiriladi?

I.2. MathCad interfeysining menyulari

MathCad 2001 Professional dasturi ishga tushirilganda sarlavha satridan keyingi qatorda uning menu bandi hosil bo'ladi. Ular quyidagilar:



Fayl menyusini yordamida yangi fayl yaratish, yaratilgan faylni




12-rasm.

Endi $y=\sin(x)$ funksiyaning grafigini $[-2\pi, 2\pi]$ oraliqda 0.01 qadam bilan grafigini plot (x,y,s) buyrug'idan foydalanib qurishni ko'raylik.

```
>> x=-2*pi:0.01*pi:2*pi;
>> y1=sin(x);
>> plot(x,y1,'r')
```



Natijada qizil rangdagi funksiyaning grafigini quyidagicha chiqadi:



11-rasm.


Xuddi shuningdek, boshqa funksiyalarni ham grafigini qurish mumkin. Masalan, $y=\cos(x)$ funksiyaning grafigini $x=0:0.1:25$ oraliqda quraylik.

ochish, faylni saqlash, faylni chop etish kabi bir qator buyruqlarni amalga oshirish mumkin. Menyuning fayl bandi quyidagilarni o'z ichiga oladi:



5-rasm. Файл менуси

Menyudagi buyruqlarni klaviatura yordamida ham amalga oshirish mumkin. Masalan, **Save (Сохранить)** buyrug'ining o'rniiga **[Ctrl]+[S]** ("+" belgisi bu ikki tugmaning birgalikda bosish kerakligini anglatadi) tugmalarini bosish ham mumkin. Xuddi shuningdek, faylni chop etish uchun **Print... (Печать...)** buyrug'ining o'rniiga **[Ctrl]+[P]** tugmalarini bosish mumkin. Menyuning **File** bandidagi ba'zi buyruqlar oxirida ketma-ket uchta nuqta (...) belgisi u buyruqning davomiyligini bildiradi, ya'ni ular ishlataliganda muloqot oyna paydo bo'ladi. Foydalanuvchi bu muloqot oynada kerakli vazifalarni bajaradi.



6-rasm. Правка менюси

Tahrirlash ishlarini bajarishda 6-rasmida keltirilgan правка menusidan foydalaniлади. Улар quyidagilar:

Undo(Ctrl+Z) –Tahrirlashning oxirgi operatsiyasini (amalini) bekor qilish.


Redo(Ctrl+Y) – Oxirgi bekor qilingan operatziyani tiklash.

Cut (Вырезать(Ctrl+X)) - Ajratilgan fragment(qism) ni joyidan olib, almashtirish buferiga joylashtirish.

Copy(Копировать (Ctrl+C)) – Ajratilgan fragment(qism) nusxasini almashtirish buferiga o'tkazish.

Paste(Вставить (Ctrl+V)) – Hujjat ichiga almashtirish buferidagi ma'lumotni qo'yish.

Delete (Стереть(Ctrl+D)) – Yo'qotish.



s = y – sariq	s =	s =
m – siyoh rang	• - nuqta	- - uzliksiz chiziq
c – moviy rang	O – doira	: - ikki punktir
r – qizil	x – krest	- . - shtrixli punktir
g – yashil	+ - plyus	--- - shrixli
b – ko'k	* - yulduzcha	
w – oq	s – kvadrat	
k – qora	d – romb	
	▽ - uchburchak (pastga)	
	△ - uchburchak (yuqoriga)	
	< - uchburchak (chapga)	
	> - uchburchak (o'ngga)	
	p – beshburchak	
	h – oltiburchak	

Misollar ko'raylik:

Masalan, $y=\sin(x)$ funksiyaning grafigini $x=0:0.1:15$; oraliqda grafigini qurish uchun plot(x,y) buyrug'idan foydalaniлади.

```
>> x=0:0.1:15;
```

```
>> plot(x,sin(x))
```

Ushbu buyruqlar bajarilganda ish maydonida oynada quyidagi grafik hosil bo'ladi:

$$C1 \cdot \sin(2^{(1/2)} \cdot t) + C2 \cdot \cos(2^{(1/2)} \cdot t)$$

Nazorat savollari.

1. simplify buyrug'ining vazifasi nima?
2. expand buyrug'ining vazifasi nima?
3. factor buyrug'ining vazifasi nima?

II.7. MATLABda grafiklar qurish

MATLABda ikki o'lchovli grafika qurish

MATLABda grafiklar qurish uchun dastlab vektor qiymatlar beriladi, so'ngra plot(<argument>) grafik qurish buyrug'idan foydalilanadi. Dastlab x argumentning boshlang'ich qiymati x_0 dan chegara qiymati x_k gacha $\square x$ qadam bilan o'zgarish intervali berilishi zarur.

plot(x,y) – bu $y=f(x)$ funksiyaning grafigini quradi. (x,y) nuqtaning koordinatalari bir xil o'lchamli x,y vektorlardan olinadi.

plot(x,y,s) – bu plot(x,y) buyrug'iغا o'xshash, lekin s satrli konstanta yordamida grafik chizig'ini berish mumkin. Uning qiymati quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval


Chiziq rangi	Nuqtalar tipi	Chiziq tipi
--------------	---------------	-------------

Select All(Выделить (Ctrl+A)) – Hujjatning barcha ob'ektlarini ajratish.

Find(Искать(Ctrl+F)) – Qidirish


Links (Ссылки) – Bog'lanish

Objects (Объект) – Ob'ekt




7-rasm. Вид менюси

Вид menyusi yordamida ish maydonida panellar ro'yxati (hisoblash palitrasи, grafik palitra, vektor va matritsa palitrasи, natijani chiqarish va o'zlashtirish palitrasи, matematik amallar palitrasи, munosabat amallari palitrasи, dasturlash palitrasи, Grek belgilari palitrasи, simvolli amallar palitrasи)ning chiqarilishini, holat satrini, chizg'ichni, ishchi sohani, masshtablarni o'zgartirish (masalan, 25% dan 200% gacha) va shu kabi buyruqlarni, amallarni bajarish mumkin.



8-rasm. Вставка менюси

Вставка менюси yordamida grafiklarning turli ko'rinishlarini qo'yish, matritsalarni tashkil qilish, funksiyalarni qo'yish, rasmlarni qo'yish kabi amallarni bajarish mumkin. Bundan tashqari matematik yoki matnli sohalar bilan ishlashni ta'minlaydi.



9-rasm. Формат менюси

Формат менюси yordamida kiritilgan ifodani hisoblashdagi

$$[-1/2 - 1/2*i*3^{(1/2)}]$$

Ushbu $\begin{cases} x + y = 3 \\ xy^2 = 4 \end{cases}$ sistemaning yechimini *solve* buyrug'idan

foydalananib aniqlash quyidagicha:

```
>> S = solve('x+y=3', 'x*y^2=4', x, y)
```

S =

x: [3x1 sym]

y: [3x1 sym]

>> S.x

ans =

[4]

[1]

[1]

>> S.y

ans =

[-1]

[2]

[2]

13. **dsolve** – bu differensial tenglamalarni yechish uchun mo'ljallangan. Koshi shaklidagi differensial tenglamalarni yechish uchun quyidagi funksiya mavjud:

dsolve('eqn1','eqn2', ...) – boshlang'ich shartlari berilgan differensial tenglamalar sistemasining analitik yechimini qaytaradi. Bog'liq bo'limgan o'zgaruvchi 't' o'zgaruvchi hisoblanadi. D simvol bilan bog'liq bo'limgan o'zgaruvchi bo'yicha hosila belgilanadi, yani d/dt . D2 bilan d^2/dt^2 belgilanadi. Bog'liq bo'limgan o'zgaruvching nomi D harfi bilan boshlanmasligi lozim. Boshlang'ich shart ' $y(a)=b$ ' yoki ' $Dy(a)=b$ ' tenglik ko'rinishda beriladi. Bu yerda y bog'liq bo'limgan o'zgaruvchi; a va b – konstantalar. Misol keltiraylik:

```
>> dsolve(D2x=-2*x')
```

ans =

```
ans =  
x^(y-1)*y
```

9. **int** – integrallash funksiyasi. Bu aniq va aniqmas integrallarni hisoblashda ishlataladi.

int(S,a,b) – S funksiyaning (a,b) oraliqda aniq integralni qaytaradi (hisoblaydi). Masalan:

```
>> int(sin(x)^3, x)  
ans =  
-1/3*sin(x)^2*cos(x)-2/3*cos(x)  
  
>> int(log(2*x), x)  
ans =  
log(2*x)*x-x
```

10. **limit** – funksiya limitini hisoblaydi. **Limit(F,x,a)** – bu funksiya F simvolli ifodaning $x=a$ nuqtada limitini aniqlaydi. Misol:

```
>> limit(sin(x)/x, x, 0)  
ans =  
1
```

11. **taylor** - bu funksiya Teylor qatoriga yoyadi. Misol:

```
>> x = sym('x')  
x =  
x  
  
>> taylor(sin(x))  
ans =  
x-1/6*x^3+1/120*x^5  
  
12. solve – bu buyruq algebraik tenglama va tenglamalar sistemasining yechimini aniqlaydi.  
Misol:  
>> syms x y;  
>> solve(x^3 -1, x)  
ans =  
[ 1]  
[-1/2+1/2*i*3^(1/2)]
```

o'zgaruvchilarning turli shriftlarda, o'lchamda va har xil rangdagi formatini tanlash, natijalarning uzunlik qiymatlarini tanlash, kiritilgan matnni turi, o'lchami va ranglarini o'zgartirish, abzatslar qo'yish kabi amallarni bajarish mumkin. Bundan tashqari ish maydoni ranglarini o'zgartirish, grafiklarni formatlash amallarini ham bajarish mumkin.

Sonlarni formatlash. Odatda MathCad 20 belgi aniqligigacha matematik ifodalarni hisoblaydi. Hisoblash natijalarini kerakli formatga o'zgartirish uchun sichqoncha ko`rsatgichini sonli hisob chiqadigan joyga keltirib, ikki marta tez-tez bosish kerak. Natijada sonlarni formatlash natijasi Result Format oynasi paydo bo`ladi. Bu ishni Format menyusining Result...(Результат...) buyrug'i orqali ham hosil qilish mumkin.

Sonlarni formatlash quyidagilardir:


General (Asosiy) – o`z holida qabul qilish. Son eksponentsiyal ko`rinishda tasvilanadi.

Decimal (O`nlik) – o`nlik qo`zg`aluvchan nuqta ko`rinishda tasvirlanuvchi son (masalan, 12.5564).

Scientific (Ilmiy) – son faqat darajada tasvirlanadi (masalan, 1.22×10^5).


Engineering (muhandislik) – sonning darajasi faqat 3 ga karrali qilinib tasvirlanadi (masalan, 1.22×10^6).

Fraction (Kasr) – son to`g`ri yoki noto`g`ri kasr ko`rinishida tasvirlanadi.




10-rasm. Математика менюси

Математика menyusi yordamida hisoblashlarni avtomatik bajarilishini yoki ishchi varaq (list)da berilgan hisoblashlarni bajarishni, hamda  tugma yordamida hisoblashni amalga oshirish mumkin.



11-rasm. Символика менюси

Символика менюси yordamida simvolli natijalar olish, soddallashtirish, ko'paytuvchilarga ajratish, yechimlarini aniqlash kabi amallarni bajarish mumkin.



12-rasm. Окно менюси

Окно менюси MathCad dasturining oynasini kaskad yoki gorizontal va vertikal mozaika ko'rinishlarida chiqarilishini ta'minlaydi.

Help menyusi yordamida MathCad dasturi haqidagi ma'lumotlarni olish mumkin.

Nazorat savollari.

1. MathCad dasturi menyulari haqida ma'lumot bering?
2. Fayl menyusida qanday buyruqlar mayjud?
3. Edit menyusining vazifasi nimadan iborat?
4. Matematika menyusi qanday buyruqlarni amalga oshiradi?

```
>> factor(x^7-1)
ans =
(x-1)*(x^6+x^5+x^4+x^3+x^2+x+1)
```

4. **collect** – bu darajalari bo'yicha komplektlash.
collect(S,v) funksiyasi S matritsa yoki vektor tarkibidagi ifodani v o'zgaruvchi darajasi bo'yicha komplektlash.

5. **simple(S)** funksiyasi S massiv elementlarini turli soddallashtirishlarini bajaradi.

6. **numden** – ratsional shaklgaga keltirish funksiyasi. Misol:

```
>> [n,d] = numden(sym(8/10))
n =
4
d =
5
```

Yuqoridagi misolda n suratni, d esa maxrajni bildiradi.

7. **subs** – o'rniga qo'yishni ta'minlaydi.

8. **diff** – funksiyaning hosilasini oladi. Misol:

```
>> help sym/name.m
sym/name.m not found.
```

```
>> x=sym('x');y=sym('y');
>> diff(x^y)
ans =
x^y*y/x
```

Natijani yana soddallashtirish mumkin. Buning uchun **simplify(arg)** buyrug'idan foydalanimiz.

```
>> simplify(ans)
```

factor	- Factor.
collect	- Collect.
simple	- Search for shortest form.
numden	- Numerator and denominator.
horner	- Nested polynomial representation.
..... va boshqa
buyruqlar ro'yxati	chiquariladi.

Yuqorida keltirilgan ba'zi buyruqlarni ishlatalishi bilan tanishaylik:

1. simplify – bu funksiya ifodani soddalashtiradi.

Simvolli ob'ektlar guruhini yaratish uchun **syms** funksiyasi xizmat qiladi. Uning umumiyo ko'rinishi quyudagicha:

Syms arg1 arg2 ... - bu simvolli ob'ektlar guruhini yaratadi.

Misollar ko'raylik:

```
>> syms a b x;
>> simplify((a^2 - 2*a*b + b^2) / (a - b))
ans =
a-b
```

2. expand – bu funksiya qavslarni ochadi. Misol:

```
>> syms a b x;
S=[(x + 2)*(x + 3)*(x + 4) sin(2*x)];expand(S)
ans =
[ x^3+9*x^2+26*x+24, 2*sin(x)*cos(x)]
```


3. factor – bu ifodani sodda ko'paytuvchilarga yoyadi. $x = \text{sym}('x')$
– simvolli o'zgaruvchini 'x' nom bilan qaytaradi va natijani x ga yozadi. Misol:

```
>> help sym/name.m
sym/name.m not found.
>> x=sym('x')
x =
```

I.3. MathCadda oddiy hisoblashlar.

MathCad interfeysining ish maydonida kursov qizil rangdagi plus belgisi (krestik) ko`rinishda bo'ladi. Ifodalarni kiritishda bu belgi kiritilayotgan ifodani egallab olgan ko'k burchakli holatga aylanadi. Ifodada turli matematik funksiyalar asosiy matematik shablondan olinadi.

O'zgauvchilarga qiymat berish uchun o'zlashtirish operatori “:=” ishlataladi. Hisoblashlarni amalga oshirish uchun oldin formuladagi o'zgaruvchi qiymatlari kiritiladi, keyin matematik ifoda yozilib tenglik “=” belgisi kiritiladi, natijada ifoda qiymati hosil bo'ladi (13-rasm).



13-rasm. Matematik ifodalarni hisoblash

Masalan: ushbu $\frac{1}{\sqrt{125}} + \frac{2}{3}$ ifodani kiritish tartibi

Calculator (Kalkulyator) – asosiy matematik operatsiyalar shablonidan foydalanib quyidagicha amalga oshiriladi:

1.  bosiladi va  hosil bo'ladi.

2. $\sqrt{\square}$ bosiladi va $\frac{1}{\sqrt{\square}}$ hosil bo'ladi.

3. 125 teriladi va $\frac{1}{\sqrt{125}}$ hosil bo'ladi.

4. $+$ va $\frac{1}{\times}$ bosiladi va $\frac{1}{\sqrt{125}} + \frac{1}{\square}$ hosil bo'ladi.

5. Kursor turgan joyga 3 raqami teriladi, suratga 1 raqami

$\frac{1}{\sqrt{125}} + \frac{2}{3}$ o'rniga 2 raqami teriladi va $\frac{1}{\sqrt{125}} + \frac{2}{3}$ hosil bo'ladi.

6. $=$ belgisini terish orqali ifodaning natijasi hosil

$\frac{1}{\sqrt{125}} + \frac{2}{3} = 0.756$ qilinadi, yani: $\frac{1}{\sqrt{125}} + \frac{2}{3}$.

Boshqa hisoblashlarni ham xuddi shu tarzda amalga oshiriladi.

Oddiy va matematik ifodalarni tahrirlashda menyu standart buyruqlaridan foydalaniladi. Tahrirlashda klaviaturadan ham foydalanish mumkin, masalan,

- [Ctrl]+[X] – kesib olish;
- [Ctrl]+[C] – nusxa olish;
- [Ctrl]+[V] – qo'yish;
- [Ctrl]+[Z] – bajarishni bekor qilish.

Xuddi elektron jadvallaridagidek MathCaddagi hujjatga ixtiyoriy o'zgarish kirtsangiz bu o'zgarishga bog'liq bo'lgan barcha natijalar yangilanadi. MathCad o'ta murakkab matematik formulalarni hisoblashga mo'jallangan bo'lsa ham, uni oddiy kalkulyator sifatida ishlatalish mumkin.

Arifmetik amallar

Amal	Klavish	O'qilishi
•	*	Ko'paytirish
+	+	Qo'shish
-	-	Ayirish
:	/	Bo'lish

II.6. MATLAB buyruqlari

MATLAB paketiga tegishli funksiya va buyruqlarni quyidagi buyruq yordamida olish mumkin:

>> help symbolic

Symbolic Math Toolbox.
Version 2.1.3 (R13) 28-Jun-2002

Calculus.

- | | |
|----------|------------------------|
| diff | - Differentiate. |
| int | - Integrate. |
| limit | - Limit. |
| taylor | - Taylor series. |
| jacobian | - Jacobian matrix. |
| symsum | - Summation of series. |

Linear Algebra.

- | | |
|----------|---|
| diag | - Create or extract diagonals. |
| triu | - Upper triangle. |
| tril | - Lower triangle. |
| inv | - Matrix inverse. |
| det | - Determinant. |
| rank | - Rank. |
| rref | - Reduced row echelon form. |
| null | - Basis for null space. |
| colspace | - Basis for column space. |
| eig | - Eigenvalues and eigenvectors. |
| svd | - Singular values and singular vectors. |
| jordan | - Jordan canonical (normal) form. |
| poly | - Characteristic polynomial. |
| expm | - Matrix exponential. |

Simplification.

- | | |
|----------|-------------|
| simplify | - Simplify. |
| expand | - Expand. |

505 505 505 505 505 505 505 505 505 505

```
>> M=magic(3)
```

M =

8	1	6
3	5	7
4	9	2

```
>> sum(M')
```

ans =

15	15	15
----	----	----

linsolve(A, b) - A·x=b ko'rnishdagi chiziqli tenglamalar sistemasi yechimini, **linsolve(A, b, options)** formatida tenglama yechish metodini berish imkoninini chaqiradi.

```
>> A=[2 -1 1;3 2 -5;1 3 -2];
```

```
>> b=[0;1;4];
```

```
>> x=linsolve(A,b) % chiziqli tenglamalar sistemasi yechish
```

x =

[13/28]

[47/28]

[3/4]

```
>> A*x %yechimni to'g'riligini tekshirish
```

ans =

[0]

[1]

[4]

Nazorat savollari.

1. Vektor uzunligini aniqlash qanday funksiya yordamida amalga oshiriladi?
2. Vektor elementlarining ko'paytmasi qanday bajariladi?
3. Vektor elementlarining yig'indisi qanday bajariladi?
4. Matritsalar ustida qanday funksuyalar bajarish mumkin?
5. Teskari matritsa qanday aniqlanadi?

Munosabat amallar

Amal	Klavish	O'qilishi
>	>	Katta
<	<	Kichik
=	Ctrl =	Teng
≥	Ctrl)	Katta yoki teng
≤	Ctrl (Kichik yoki teng
≠	Ctrl #	Teng emas

Mantiqiy amallar

Not \neg	And \wedge	Or \vee	Xor \otimes
0 $\neg=$ 1	0 \wedge 0 = 0	0 \vee 0 = 0	0 \otimes 0 = 0
1 $\neg=$ 0	0 \wedge 1 = 0	0 \vee 1 = 1	0 \otimes 1 = 1
	1 \wedge 0 = 0	1 \vee 0 = 1	1 \otimes 0 = 1
	1 \wedge 1 = 1	1 \vee 1 = 1	1 \otimes 1 = 0

MathCadda ifodalarning qiymatlarini hisoblash tartibi xuddi matematikadagidek bo'ladi.

MathCadda diskret o'zgaruvchilar deganda sikk operatorini tushunish kerak. Bunday o'zgaruvchilar ma'lum qadam bilan o'suvchi yoki kamayuvchi sonlarni ketma-ket qabul qiladi. Masalan:

$x:=0..5$. Bu shuni bildiradiki bu o'zgaruvchi qiymati qator bir necha qiymatlardir, ya'ni $x=0,1,2,3,4,5$.

$x:=1,1..5$. Bunda 1 – birinchi sonni, 1,1 – ikkinchi sonni, 5 – oxirgi sonni bildiradi.

$x:=A,A+B..B$. Bunda A – birinchi, A+B – ikkinchi, B – oxirgi sonni bildiradi.

Izoh! O'zgaruvchi diapazonini ko`rsatishda ikki nuqta o`rniga klaviaturadan (;) nuqta vergul kiritiladi yoki Matrix (Matritsa) panelidan Range Variable (Diskret o'zgaruvchi) tugmasi bosiladi. Hisoblangan qiymatni chiqarish uchun esa o'zgaruvchi va tenglik belgisini kiritish kifoya. Natijada o'zgaruvchi qiymati ketma-ket jadvalda chiqadi. Masalan, $x:=0..5$ deb yozib, keyin $x=$ kiritish kerak.

Foydalanuvchi funksiyaning uning argumentiga mos qiymatlarini hisoblab chiqarish va bu qiymatlarni jadval yoki grafik ko`rinishda tasvirlashda diskret o`zgaruvchilardan foydalanish qulaylikni keltiradi. Masalan, $f(x)=\sin(x)\cdot\cos(x)$ funksiya qiymatlarini x ning 0 dan 5 gacha bo`lgan qiymatlarida hisoblash kerak bo`lsa, u holda quyidagi kiritishni amalga oshirish kerak: $f(x)=\sin(x)\cdot\cos(x)$ $x:=0..5$ $f(x)=javob.$

Ifodalarni soddalashtirish va ko`phadlarni ko`paytuvchilarga ajratish, almashtirishlar (Laplas, Fure va h.k.)ni bajarish buyruqlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Vosita	Shablon	Ta'rifi
float	• Float, •→	Siljuvchi nuqtali shaklda hisoblash
complex	• complex, •→	Kompleks son shakliga o`tkazish
expand	• expand, •→	Bir necha o`zgaruvchili yig`indi, ko`paytma va darajani ochish
simplify	• simplify, •→	Ifodalarni ixchamlash, soddalashtirish
substitute	• substitute, •→	Ifodalarni hisoblash
collect	• collect, •→	Oddiy yig`indida tasvirlangan polinom ko`rinishdagi ifodani soddalashtirish
series	• series, •→	Darajali qatorga yoyish
assume	• assume, •→	Aniq qiymat bilan yuborilgan o`zgaruvchini hisoblash
parfrac	• parfrac, •→	Oddiy kasrga ifodalarni yoyish
coeffs	• coeffs, •→	Polinom koeffitsienti vektorini aniqlash
factor	• factor, •→	Ifodalarni ko`paytuvchilarga yoyish
fourier	• fourier, •→	Fure to`g`ri almashtirishi
laplace	• laplace, •→	Laplas to`g`ri almashtirishi

```
ans =
1.0000 -0.0000 -0.0000 0.0000
0 1.0000 0.0000 0.0000
0.0000 -0.0000 1.0000 -0.0000
0.0000 -0.0000 -0.0000 1.0000
```

magic(*n*) – funksiyasi $n \times n$ o'lchamli sirli matritsanı beradi, yani barcha ustun elementlari yig`indisi, barcha satr elementlari yig`indisi va hatto diagonal bo'yicha elementlar yig`indisi bir xil songa teng bo'ladi. Masalan:

```
>> M=magic(4)
```

```
M =
16 2 3 13
5 11 10 8
9 7 6 12
4 14 15 1
```

```
>> sum(M')
```

```
ans =
34 34 34 34
```

```
>> M=magic(10)
```

```
M =
92 99 1 8 15 67 74 51 58 40
98 80 7 14 16 73 55 57 64 41
4 81 88 20 22 54 56 63 70 47
85 87 19 21 3 60 62 69 71 28
86 93 25 2 9 61 68 75 52 34
17 24 76 83 90 42 49 26 33 65
23 5 82 89 91 48 30 32 39 66
79 6 13 95 97 29 31 38 45 72
10 12 94 96 78 35 37 44 46 53
11 18 100 77 84 36 43 50 27 59
```

```
>> sum(M')
```

```
ans =
```

Misol:

```
>> A=[1 2;3 4];
>> B=[5 6;7 8];
>> cat(2,A,B)
ans =
1 2 5 6
3 4 7 8
```

```
>> [A,B]
ans =
1 2 5 6
3 4 7 8
```

```
>> cat(1,A,B)
ans =
1 2
3 4
5 6
7 8
```

inv(M) – M matritsaga teskari matritsani qaytaradi.

Misol:


```
>> M=[2 1 -5 1;1 -3 0 -6;0 2 -1 2;1 4 -7 6]
M =
2 1 -5 1
1 -3 0 -6
0 2 -1 2
1 4 -7 6
```

```
>> P=inv(M)
P =
1.3333 -0.6667 0.3333 -1.0000
-0.0741 0.2593 1.1481 -0.1111
0.3704 -0.2963 0.2593 -0.4444
0.2593 -0.4074 -0.5185 -0.1111
```

>> M*P % M*P=E ekanligini tekshirish

ztrans	• ztrans, •→	To`g`ri z – almashtirish
invfourier	• invfourier, •→	Fure teskari almashtirishi
invlaplace	• invlaplace, •→	Laplas teskari almashtirishi
invztrans	• invztrans, •→	Teskari z - almashtirish

Misollar keltiraylik:



14-rasm. Ifodalarni soddalashtirish va ko'phadlarni ko'paytuvchilarga ajratish

Hosilalar.


MathCadning hosila operatori berilgan nuqtada funksiya hosilasining miqdoriy qiymatini topish uchun mo'ljallangan. Masalan x^3 ning $x=3$ nuqtada x bo'yicha hosilasini topish uchun quyidagilarni bajaring.

- Avval hosilani topish kerak bo'lgan nuqtani kiritish kerak.
 $x:=3$
- Hosila operatorini operatorlar palitrasidan $\frac{d}{dx} \bullet$

ko'rishni hosil qiling.

- Maxrajdagi bo'sh joyga o'zgaruvchini kriting. $\frac{d}{dx} \bullet$
- Qolgan bo'sh joyga esa ifodani kriting. $\frac{d}{dx} x^3$
- = belgisini bosing natijada $\frac{d}{dx} x^3 = 27$ hosil bo'ladi.

Xuddi shu tartibda funksiya n- darajali hosilasining biror nuqtadagi miqdoriy qiymati ham hisoblanadi va o'zgaruvchining diskret qiymatlarida ham funksiya hosilasining qiymatlarini hisoblash mumkin. 15-ramsda bunga doir misollar keltirilgan.



ans =

2

norm(M, p) – p (p=1, 2, inf, fro) ga bog'liq holda M matritsaning normasini turli ko'rinishlarda qaytaradi.

cond (M, p) – p normaga asoslangan M matritsa shartli qiymat sonini qaytaradi.

Bu funksiyalarga doir misollar qaraylik:

>> M=[5 7 6 5;7 10 8 7;6 8 10 9;5 7 9 10];

>> norm(M)

ans =

30.2887

>> M=[5 7 6 5;7 10 8 7;6 8 10 9;5 7 9 10];

>> cond(M)

ans =

2.9841e+003

eye (n, m) yoki **eye (n)** – kvadrat birlik matritsa yoki bosh diagonali bo'yicha birlik to'g'ri to'rburchakli matritsanı qaytaradi.

Misol:

>> eye(3,3)

ans =

1	0	0
0	1	0
0	0	1

>> eye(4,4)

ans =

1	0	0	0
0	1	0	0
0	0	1	0
0	0	0	1

cat (n, A, B) yoki **cat (n, A, B, C, ...)** – A va B matritsalarni birlashtiradi.

max(V) - V massivning katta elementini aniqlaydi.

```
>> V=[-1 0 3 -2 1 -1 1];
```

```
>> max(V)
```

```
ans =
```

```
3
```

sort(V) – V massivni tartiblaydi (o'sish tartibi bo'yicha saralaydi).

```
>> V=[-1 0 3 -2 1 -1 1];
```

```
>> sort(V)
```

```
ans =
```

```
-2 -1 -1 0 1 1 3
```

-sort(-V) – V massivni tartiblaydi (kamayish tartibi bo'yicha saralaydi).

```
>> V=[-1 0 3 -2 1 -1 1];
```

```
>> -sort(-V)
```

```
ans =
```

```
3 1 1 0 -1 -1 -2
```

det(M) – M kvadrat matritsanı hisoblaydi.

```
>> M=[3 2;4 3];
```

```
>> det(M)
```

```
ans =
```

```
1
```

rank(M) – M matritsa rangini aniqlaydi.

```
>> M=[1 -2 4 5;3 -1 -3 5;1 3 -11 -5]
```

```
M =
```

```
1 -2 4 5  
3 -1 -3 5  
1 3 -11 -5
```

```
>> rank(M)
```

Nazorat savollari.

1. Arifmetik amallar qanday bajariladi?
2. Mantiqiy amallarni sanab o'ting?
3. Ifodalarni soddalashtirish qanday amalga oshiriladi?
